

AXBOROT XURUJLARIGA QARSHI YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH

Xodjayeva D. Yu.

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
tarix fakulteti “ma’naviyat asoslariva huquq ta’limi” kafedrasida
dotsenti, falsafa fanlari nomzodi*

Tayanch soʻzlar: yoshlar, ta’lim-tarbiya, axborot xurujlari, mafkuraviy immunitet, ogohlik, Internet, diniy ekstremizm, aqidaparastlik.

Ключевые слова: молодежь, образование, информационные атаки, идеологический иммунитет, осведомленность, Интернет, религиозный экстремизм, фанатизм.

Key words: youth, education, information attacks, ideological immunity, awareness, Internet, religious extremism, fanaticism.

Mamlakatimizda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Yoshlarni ma’nan yetuk, jismonan barkamol, axloqan pok, yuksak intellektual, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrllovchi, buyuk ajdodlarimizni o’ziga ibrat deb biluvchi, elim-yurtim deb yonuvchi, shijoatli, tadbirkor, adolatli qaror chiqara oladigan, tevarak atrofidagi voqea-hodisalar haqida mustaqil fikrlaydigan, o’z haq ququqini biladigan vatanparvar inson sifatida tarbiyalash eng dolzarb vazifalarimizdandir.

Bugungi kunda yoshlarimiz bizning nafaqat tayanchimiz va suyanchimiz, balki bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchiga aylanishi lozim. «Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir boʻlgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga gʻurur va iftixor bagʻishlaydi. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.»

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, «yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalash – ularni ezgulik ruhida tarbiyalash



demakdir. Bunday insonlar esa yon-atrofida bo‘ladigan ishlarga befarq qarab turolmaydi: yaxshi ishlarga qo‘shilishga, yomon ishlarga esa qarshilik ko‘rsatishga harakat qiladi.»

Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining yuqori sur‘atlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin ijobiy o‘zgarishlarning yuz berishiga sabab bo‘lib, insoniyat taraqqiyotini yangi bosqichlarga olib chiqdi. Insoniyat axborot texnologiyalari yordamida ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish bilan chegaralanmay jamiyatda iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarni boshqarish, ularga ta‘sir etish va istiqbolini belgilash imkoniyatiga ham ega bo‘lib bormoqda.

Hozirgi kunda axborot davlatning milliy boyligi, xalqaro maydonda esa strategik resursga aylangan. Ammo, zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyat hayotiga ko‘plab qulaylik va imkoniyatlar yaratishi bilan birga ayrim muammolarni ham keltirib chiqmoqda. Bu muammolar asosan yoshlar ongiga salbiy ta‘sir etib, kelajagini yo‘qqa chiqarishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ta‘kidlaganlaridek, “Birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Ekstremistik faoliyat va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz.”

Darhaqiqat, XXI asrda axborot urushining o‘ziga xos jihati urush vositalari, uslublarining ko‘paygani, takomillashganida ko‘rinadi. Bugungi kunda bunday urush Internetda, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar orqali ham olib borilmoqda. Ayrim mutaxassislar tomonidan psixoterapiya metodlari yakka shaxsga qanday ta‘sir etsa, axborot urushining metodlari ommaviy ongga shunday ta‘sir qilishini ta‘kidlashadi.

Prezidentning 2005-yil 28-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta‘lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-191-son Qarori bilan o‘quv-ta‘lim, ilmiy, yoshlar hamda bolalar muassasalari va tashkilotlari

uchun mo'ljallangan axborot materiallarini birlashtiruvchi yagona axborot-resurs maydonchaga ega bo'lgan «ZiyoNet» jamoat axborot ta'lim tarmog'i tashkil etildi. Bugungi kunda mazkur tarmoq yoshlar hamda ta'lim oluvchilarga axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirmoqda.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishi kerak. Yosh avlodni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim.

So'nggi yillarda aqidaparast oqimlar yoshlar ichidagi faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, "Internet" orqali targ'ibot o'tkazish, yashirin "Hujralar" tashkil etish kabi usullarda amalga oshirmoqda. Ayniqsa, Internet tarmog'ida "Iroq davlati", "Jabat al-Nusra" kabi terroristik tashkilotlar go'yoki islom ravnaqi yo'lida kurashayotgan "Mujohid birodarlar guruhi" ekani haqidagi targ'ibot-tashviqot keng ko'lamda olib borilayotgani, buning oqibatida dunyoning ko'plab mamlakatlaridan musulmon yoshlar "hijrat" qilish va "jihod"da ishtirok etish da'vosida Suriya va Iroq hududiga borib, ushbu guruh safiga qo'shilayotganing guvohi bo'lmoqdamiz.

Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda. Hozirda Internet tarmoqlarida buzg'unchilik, zo'ravonlik va axloqsizlikni, "ommaviy madaniyat"ni ham targ'ib etadigan saytlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz?

Ayni vaqtda, yoshlarning turli norasmiy, noislomiy diniy jamoalarning ta'siriga tushib qolishining oldini olishda ta'lim muassasalari va mahalla tomonidan tizimli ravishda tushuntirish ishlari olib borishi muhim o'rin tutadi.

Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, "bu -yaxshi, bu-yomon" degan qat'iy fikr paydo bo'lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo'ladi. Chunki, yoshlarning ongini puch yong'oq bilan to'ldirish emas, albatta, bilimli, salohiyatli, yetuk shaxs va barkamol avlod qilib tarbiyalashimiz lozim.



Yoshlarning aksariyat qismi hozirgi kunga kelib, kitob mutoala qilish o'rniga Internet saytiga ruju qo'yganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu holat nimadan kelib chiqadi? - degan savol tug'ilishi tayin albatta?!

Xalqimizda "Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar" degan purhikmatli gap bor. Yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan barcha fuqarolarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Asosan farzand tarbiyasi uchun ota-ona javobgar shaxs hisoblanadi, ular bolaning kelajagi uchun qayg'ursa, birinchi o'rinda telefon tutqazib emas, kitob mutoala qilishida ko'maklashib yetaklamog'i lozim.

Hozirgi kunda globallashuv jarayonida axborot-telekommunikatsiya rivojlanishi mobaynida qanchadan – qancha yoshlarimiz chet ellarda ta'lim olmoqda, chuqur bilim egasi bo'lib, O'zbekistonga o'z bilim tajribalarini ko'rsatishda munosib o'rin egallab kelishmoqda.

Zero, yuksalishlar ortida ham mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishlar sodir bo'lmoqda.

Hozirgi tahlikali zamonda Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Sarhadsiz Internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g'animat ekanini doimo yodda saqlamog'i lozim.

Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo'lib, unda inson adashib soatlab kunlarini samarasiz o'tkazib yuborishi mumkin. Bugungi shiddatli globallashuv davrida yoshlar ong-u shuurini Internet orqali kirib kelayotgan zararli g'oya va ta'sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o'qituvchilar, ma'naviyat targ'ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo'lishni yosh avlodning g'oyaviy, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirishni talab etadi.

"Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televideniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofni temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda

ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat’iy maqsad qilib qo‘yganmiz”.

O‘zo‘rnida aytish kerakki, hozirgi kunda yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida Internetga murojaat qilmoqda. Foydalanilayotgan axborot vositalarining katta qismi asosan «Twitter», «Facebook», «Odnoklassniki» kabi ijtimoiy tarmoqlar va video, audio portallarga to‘g‘ri kelsa, ma’lum bir qismigina zararli ta’sir etmaydigan, ilmiy, madaniy va ma’rifiy saytlardan iboratligini kuzatish mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda jahon bo‘ylab Internet tarmog‘ida o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi, behayolik mazmundagi saytlar ko‘paymoqda, zo‘ravonlik va yovuzlikni targ‘ib qiluvchi kompyuter o‘yinlarini yaratish ishlari avj olgan. Ayni vaqtda, aksariyat bolalar va o‘smirlar onlayn tarzda tarqatiladigan pornografiya ta’siriga butunlay tushib qolganligi bizni eng xavotirga solayotgan masaladir.

“Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” muhim ahamiyatga ega.

Shu orqali yosh avlod ongida “axborot immuniteti”ni shakllantirish, oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratish tuyg‘ularini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Binobarin, o‘sib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalash kerakki, ular axborot makoniga kirganda, faqat o‘zi uchun zarur va foydali narsani olsin, Internetdan foydalanish madaniyatini o‘rgansin.

Bugungi globallashuv davrida Internet tizimi orqali mentalitetimizga mutlaqo yot mafkura va dunyoqarashni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishga urinayotganlar borligi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xatarlidir.

Zero, mafkuraviy xurujlar, avvalo, yoshlarning ongini zaharlashga qaratilgan bo‘lib, “ommaviy madaniyat” deb atalayotgan illat xalqimizning ma’naviy boyligi bo‘lgan odob-axloq, ibo, or-nomus, iroda, sharm-hayo, iffat-andisha kabi fazilatlarimizni nursizlantirib, ko‘p ming yillik milliy qadriyatlarimizga putur yetkazmoqda.

O‘zbekiston erishayotgan, dunyo tan olayotgan ulkan yutuqlarning negizida turgan asosiy omil insondir. Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan so‘zlari bir asr avval millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarblik kasb etgan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Axborot globallashuvi jarayonida milliy axborot makonini



shakllantirish, himoya qilish va uni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish har bir davlatning strategik manfaatlari bilan hamohang bo'lgan ustuvor vazifalari sirasiga kiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish sur'atining yanada oshirilishi esa axborot almashinuvi sohasida cheksiz imkoniyatlar yaratadi. Bu, o'z navbatida, dunyo mamlakatlari qatori O'zbekistonning ham ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylangan.

Qonunchilik sohasida ham bu borada ma'lum o'zgarishlar amalga oshirildi. O'sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash, ularda "axborot immuniteti"ni shakllantirish, ularni Internet orqali kirib kelayotgan yot ta'sirlardan asrash maqsadida tegishli qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksining 1882-modda bilan to'ldirilgan qismida voyaga yetmagan shaxsning ko'ngil ochish (dam olish) joylarida tungi vaqtda bo'lishiga yo'l qo'yish, ya'ni restoranlar, kafelar, barlar, klublar, diskotekalar, kinoteatrlar, kompyuter zallari, Internet tarmog'idan foydalanish xizmatlarini ko'rsatish uchun jihozlangan xonalar yoki boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylarining rahbarlari yoxud boshqa mas'ul shaxslari tomonidan voyaga yetmagan shaxsning tungi vaqtda ota-onasidan biri yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning kuzatuvizis ko'rsatilgan muassasalarda bo'lishiga yo'l qo'yish ma'muriy javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi belgilandi.

O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish borasida keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahnamoligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayoni zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirgan, raqobatbardosh va axborot texnologiyalarni qo'llay oladigan yosh avlodni tarbiyalashni talab etmoqda.

Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "... har qanday islohot, xususan, millionlab yoshlarning hayoti va kelajagiga bevosita daxldor bo'lgan o'zgarishlar har tomonlama chuqur o'ylab ish tutishni, yetti o'lchab, bir kesishni talab qiladi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir bo'lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak."

Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinayotgan yoshlar siyosatiga oid dasturlar, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, olib borayotgan

ishlarimizga tanqidiy nazar bilan qarab, yanada faolroq bo‘lishimiz, o‘z ustimizda ishlashimiz barchamiz uchun burch hamdir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar ,1-jild. T.: O‘zbekiston, 2017
2. Mirziyoyev Sh.M.Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar II-jild. T.: O‘zbekiston. 2018.
3. Mirziyoev Sh.M ”O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» nomli ma‘ruzasi „Ishonch” gazetasi, 2016-yil 15-dekabr, № 150
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma‘naviyat», 2008.
5. Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida ”gi kodeks. – T.: O‘zbekiston.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi, axborot xurujlariga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ogohlik tuyg‘ularini tarbiyalashning masalalari keng yoritilib tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье важнейшей задачей является формирование и воспитание молодежи на основе просвещения, формирование у молодежи идеологического иммунитета против информационных атак, воспитание чувства сознательности.

SUMMARY

In this article, the most important task is the formation and education of young people on the basis of education, the formation of ideological immunity among young people against information attacks, and the cultivation of a sense of consciousness.